



QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURCHILIGIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH MASALALAR

Qahharov Zuhriddin,

Toshkent moliya instituti o'qituvchisi PhD.

Email: kahharovzz@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5687-897X

PROBLEMS IN THE ADMINISTRATION OF VALUE ADDED TAX AND ISSUES TO SOLVE THEM

Qahharov Zuhriddin,

PhD. Lecturer of Tashkent Institute of Finance

Email: kahharovzz@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5687-897X

JEL Classification: M1, M4, M41

Annotasiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligi va amaliyotining holati, muammolar hamda ular bo'yicha yechimlar takif qilingan. Maqolada eng avvalo, qo'shilgan qiymat solig'ining paydo bo'lishi va uning mamlakatimiz budgetidagi o'rni haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqolada qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq riski darajasiga ko'ra guruhlarga ajratish amaliyoti haqidagi fikrlar keltirilgan hamda unga kiritilgan mezonlar sharxlangan. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ini budgetga hisoblash va to'lash bilan bog'liq munosabatlarning boshqa ayrim jihatlarni tushuntirib berilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchilagini takomillashtirish bo'yicha katta hajmli ishlar qilindi. Mamlakatimizda xo'jalik subyektlari o'rtasida hisobvaraq-fakturalarni elektron shaklda taqdim qilish zarur qilib belgilandi. Soliq to'lovchilar tuzgan ijara shartnomalarini soliq xizmatlari maxsus portalida hisobga qo'yish amaliyoti joriy qilingan. Biroq qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchilagini yana-da rivojlantirish zarurli taqazo qilinmoqda.

Abstract. The article describes the state of administration and practice of value added tax in the Republic of Uzbekistan, problems and their solutions. First of all, the article talks about the emergence of value added tax and its role in the budget of our country. In addition, the article presents opinions on the practice of dividing VAT payers into groups according to the level of tax risk and comments on the criteria included in it. Also, some other aspects of relations related to calculation and payment of value added tax to the budget are explained. In recent years, significant work has been done to improve the administration of value added tax in our country. In our country, it is necessary to submit invoices between economic entities in electronic form. The practice of registering lease agreements concluded by taxpayers on a special portal of tax services has been introduced. However, further development of the value added tax administration is considered necessary.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat solig'i, soliq munosabatlari, soliq huquqi, soliq majburiyati, soliq to'lovchilar, soliq munosabatlari tizimi.

Keywords: value added tax, tax relations, tax law, tax liability, tax payer, tax relations system

Kirish. Mamlakatimizda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'lida bir qancha vazifalar belgilab olingan. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish maqsad qilingan [1]. Ushbu vazifalarga erishish eng avvalo, erkin raqobat muhitini rivojlantirish va samarali soliq siyosatini olib borishni taqazo qiladi.

Mamlakatimizda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri soliq to'lovchilarni soliqqa tortishning adolatligini ta'minlash, samarasiz va adolatli bo'lmasan soliq imtiyozlarini berishdan voz kechish, soliq to'lovlarini to'g'ri hisoblanishi va budgetga to'lanishini ta'minlash hamda ushbu vazifalarni soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi orqali amalga oshirish hisoblanadi. Rivojlangan iqtisodiy davlatlarning iqtisodiy tarixi shuni ko'rsatadi, soliq stavkasini kamaytirish orqali soliq yukini pasaytirish soliq bazasining ortishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida budgetga soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekistonda 2023-yildan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foizgacha hamda 2025-yildan bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi 15 foizgacha tushirildi [2].

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat budgetining daromad qismiga jalb qilish

g'oyasi dastlab XX asrning boshida paydo bo'ldi. O'sha paytda Yevropalik iqtisodchi olimlar budget soliqli daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari bo'yicha o'z takliflarini berishadi. Ulardan biri nems tadbirkori va iqtisodchisi Vilgelm Fon Simens 1919-yilda QQSga o'xshash soliq kategoriyasini taklif qiladi [3]. Dastlab bu soliq «Veredelte Umsatzsteuer» - «Takomillashtirilgan oborot solig'i» deb atalgan. Uning konsepsiysi o'sha paytlarda amalda bo'lgan oborot solig'ini boshqa shaklda rivojlantirishni nazarda tutuvchi innovatsiya edi. Xuddi shu davrda yana bir iqtisodchi olim amerikalik Tomas Adams shu mavzuda izlanishlar olib boradi va uning xulosasiga ko'ra biznesga solinadigan daomad (foyda) solig'ining o'rniqiga qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq joriy etish kerak edi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etish va undirish mexanizmi fransuz moliyachisi Moris Lore tomonidan 1958-yilda ishlab chiqiladi. Bu bugungi shakldagi zamonaviy qo'shilgan qiymat solig'i edi. Amaliyatga Moris Lorenning taklifi oradan 10 yil o'tib 1968-yili Franiyada joriy etiladi [4].

Bilvosita soliqlar, jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha davatlarda bo'lgani kabi yurtimizda ham soliq tiziminig ajralmas qismiga aylangan. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan ko'pgina davatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham bilvosita soliqlar, xususan uning ajralmas qismi bo'lmish qo'shilgan qiymat solig'i davlat budgeti daromadlarini shakllantiruvchi eng asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda soliq tizida amalga oshirilayotgan qator islohotlar o'zining ijobjiy samarasini ko'rsatmoqda. Shuni ham aytib o'tish kerakki, soliq tizimida, jumladan qo'shilgan qiymat solig'iga doir sohada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar mavjud.

Material va metod. Davlat budjeti daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar, jumladan qo'shilgan qiymat solig'i nihoyatda muhim o'rinni egallaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda budjet

daromadlari tarkibida eng katta ulushni qo'shilgan qiymat solig'i tashkil qilmoqda. 2021-yilda Davlat byudjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlar 35,8% va bilvosita soliqlarning 34,2% nisbati tashkil qilgan [5].

1-jadval

O'zbekistonda 2020-2021 yilda bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar [5]

| Soliqlarning turlari | 2020-yil | 2021-yil | O'sish |
|--|----------|----------|--------|
| Qo'shilgan qiymat solig'i | 112 336 | 145 434 | 33 098 |
| Aylanmadan olinadigan soliq | 208 091 | 299 036 | 90 945 |
| Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq | 58 856 | 69 353 | 10 497 |
| Yuridik shaxslarning yer solig'i | 158 675 | 170 539 | 11 864 |
| Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 141 204 | 154 731 | 13 527 |

2021 yilda bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar o'tgan yil bilan solishtirganda 9,9 trln so'mga (21,2%) oshib, 56,3 trln so'mni tashkil etdi.

2021 yilda soliq va bojxona organlari tomonidan ma'murlashtiriladigan QQS bo'yicha tushumlar 52,8 trln so'mni tashkil etdi (qoplash summalarini hisobga olmaganda) yoki 2020 yil bilan solishtirganda 12,6 trln so'mga oshdi.

Mamlakatimizda soliq ma'murchiligini rivojlantirishning asosiy sharti sifatida sohaga raqamlashtirishni keng joriy qilish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga o'rinsiz aralashuvlarni kamaytirish hisoblanadi. So'nggi yillarda bu yo'lda katta ishlari qilindi. Xususan, soliq tizimi asosiy me'yoriy-huquqiy tayanchi sifatida yangi tahrirda Soliq kodeksi qabul qilindi va unda bir qancha yangi normalar kiritildi. Ushbu normalar yuzasidan ba'zi soliq to'lovchilar, asosan insofsiz soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida huquqiy qarama-qarshiliklar yuz bergani, bu

jarayonlar ommaviy axborot vositalarida keng muhokama qilinganligi, shuningdek bir qancha iqtisodiy sud ishlari ko'rilmaganligi ham hech kimga sir emas.

So'nggi yillarda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tizimidagi eng muhim yangilik yangi soliq kodeksi qabul qilinganligi bo'lsa, undan keying muhim o'zgarish, bizning fikrimizda hisobvaraqt-faktura xaridor va buyurtmachilarga taqdim qilishning elektron shaklda amalga oshirish talabaning joriy qilinganligi bo'lsa kerak. Elektron hisobvaraqt-fakturalarning axborot kanallari orqali elektron taqdim qilish orqali yo'l qo'yiladigan quyidagi qulayliklarni yaratmoqda:

- soliq to'lovchilar tomonidan eski sana bilan birlamchi hujjatlarga o'zgartirish kiritish kabi huquqbuzarliklarni kamaytirish;
- xarid qilingan tovar va xizmatlar qiymatida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini asossiz oshirib ko'rsatishni oldini olish;

- qo'shilgan qiymat solig'i hisobotining asosiy qismlarini my.soliq.uz saytida avtomatik tarzda shakllantirish;

- xo'jalik subyektlari hisobvarag'idagi pul mablag'larini noqonuniy naqdlashtirish bilan shug'ullanuvchilar soxta tadbirkorlarni tezkor aniqlash va huquqiy choralarini samarali qo'llash va shu kabi afzalliklar.

Qo'shilgan qiymat solig'i aslida "Yevropacha soliq" deb ham atalib, boshqa soliq turlari, masalan, resurs soliqlaridan ko'ra ancha yosh soliq turi hisoblanadi. Ushbu soliq turining yana bir yaxshi xususiyati shundan iboratki, davlat uchun qo'shilgan qiymat solig'ini undirish nisbatan kam xarajatlari hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchilagini takomillashtirish maqsadida so'nggi yillarda bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, ular tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2021 yildagi "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatichilagini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5231-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2021 yildagi "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'inining o'rnini qoplash tartibini soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 595-son qarori va boshqa qonun hujjati misol bo'la oladi. Ushbu qonun normalariga asosan quyidagi yangiliklar kiritilgan edi:

- yuridik shaxslar tomonidan ko'chmas mulkni ijaraga berish (olish) yoki tekin foydalanish shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yiladi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ko'chmas mulkni ijaraga berish yoki tekin foydalanish shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarining elektron tizimlarida hisobga qo'yish masofadan turib faqat elektron shaklda amalga oshiriladi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy resurslarni hisobga olish (sotib olish (qurish), ishga tushirish, qayta baholash, tasarruf etish) hamda o'z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish va kamaytirish bilan bog'liq barcha operatsiyalarini davlat soliq organlarining "E-aktiv" avtomatlashtirilgan axborot tizimida aks ettirish;

- Soliq to'lovchilarni insofli soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlari (talablari) va ularning ro'yxatini shakllantirish tartibi va boshqa normalar.

Munozara. Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchilagini takomillashtirishga oid tartib-qoidalarning yangilanishi bir qancha yechilishi zarur bo'lgan masalalarni yuzaga keltirmoqda.

Eng avvalo, "E-aktiv" avtomatlashtirilgan axborot tizimida korxona tasarrufidagi aktivlarning hisobini yuritib borish buxgalteriya hisobini tashkil qilishni soddallashtirishga emas, murakkablashtirishga sabab bo'lmoqda. Bunday amaliyot jahon soliq ma'murchiligi amaliyotida mavjudmi o'zi?

Soliq to'lovchilarni toifalarga ajratish mezonlari ichida joylashgan manzilini soliq organlarida hisobga qo'yish bilan bog'liq murakkabliklar mavjud. Xususan, ushbu mezon bo'yicha QQS guvohnomasi nofaol holatga o'tib qolgan soliq to'lovchilar my.soliq.uz kabineti orqali guvohnomani faollashtirishga murojaat yuborishi belgilangan. Ushbu murojaat esa 28 kalendar kunigacha ko'rib chiqilishi mumkin. Insof bilan aytish kerakki, soliq organi xodimlari amalga iloji boricha tezroq ushbu mazmundagi murojaatlarni ko'rib chiqishga harakat qilmoqda.

Yakka tartibdagi tarbirkorlik subyektlari faoliyat joyi o'zgarsa ham, doimiy turar-joyi ma'lumoti my.soliq.uz saytida hisob ma'lumotlari qismida manzil

o’zgarishsiz qolmoqda. Amalda quyidagi xodisaga guvoh bo’ldik: YaTT shaklida faoliyat yurituvchi jismoniy shaxs Toshkent shahri Uchtepa tumanida doimiy ro’yxatda turadi. U 2022-yilning dekabr oyidan QQS to’lovchisiga aylandi (yil boshidan aylanmasi 1 mldr so’mdan oshganligi hisobiga). Shundan keyin QQS guvohnomasi olindi va bir necha kundan keyin guvohnoma nofaol holatga o’zgarib qoldi. Sabab esa YaTT ro’yxatdan o’tgan joy noturar-joy ekanligida. Keyin ushbu YaTT Toshkent viloyati Yangiyo’l shaharda noturar-joyga ijara shartnomasi asosida joylashdi. Toshkent viloyati soliq boshqarmasi tomonidan joy o’rganildi va haqiqatda shu manzilda joylashganligi aniqlandi. Biroq soliq organlari bazasida ushbu YaTT jismoniy shaxsning yashash manzili bo’yicha ro’yxatga qo’yliganligi sababli Toshkent viloyati soliq boshqarmasi uning QQS guvohnomasini faol holatga o’tkazib berolmadidi. Shu kabi muammolar sababli soliq to’lovchilarining sarson bo’lishi kuzatilmogda.

Shunday bo’lsa-da, soliq undiruvi ma’murchiligidagi murakkab bo’lib turgan amaliyotlardan ko’ra muvaffaqiyatli islohotlar salmog’i ko’proq. Masalan, Ish o’rinlarini qonuniylashtirish uchun shart-sharoit yaratish va “E-ijara” ko’chmas mulk ijara shartnomasini ro’yxatga olish xizmati, shu jumladan jismoniy shaxslar uchun ham ishga tushirilishi natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i tushumlarida (o’tgan yilga nisbatan 28 %

ko’p) ham ijobiy dinamika kuzatilmogda. Mazkur tizimda jami 243 ming soliq to’lovchi ijara shartnomasini ro’yxatdan o’tkazgan bo’lsa, ularning 162 ming nafari (67%) jismoniy shaxslardir. Umuman olganda, “E-ijara” xizmati soliq bazasini 9,5 trln so’mga qonuniylashtirish imkonini berdi [6].

Xulosa. Mavjud murakkabliklarni kamaytirish hamda muammolarni yechish uchun quyidagi amaliy takliflarni beramiz:

Birinchidan joylashgan manzilini soliq organlarida hisobga qo’yish bilan bog’liq muammolar sababli QQS guvohnomasi nofaol bo’lib qolgan korxonalarining ushbu muammoni hal qilish yuzasidan qilgan murojaatlarini tezkor ko’rib chiqish bo’yicha tartib qoidalarni joriy qilish lozim, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, tovar (mahsulot, ish, xizmat) larning yagona elektron milliy katalogida tovarlarning kodlarini yangilashni to’xtatib turish lozim. So’nggi 2 yilda ushbu kodlar bir necha marta o’zgarganligi sababli schot-faktura yozishda va hisob yuritishda tadbirkorlik subyektlari sezilarli muammolarga to’qnash keldi.

Uchinchidan, “E-aktiv” avtomatlashtirilgan axborot tizimida korxona tasarrufidagi aktivlarning hisobini yuritib borish buxgalteriya hisobini tashkil qilish rejalaridan hozircha voz kechib turish lozim. Sababi qo’shilgan qiymat solig’ini undirish amaliyotida yetarlicha ko’p muammolar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Qarori. T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2022-yil 28-yanvar.
2. O’zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o’zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to‘g’risida”gi 2022-



yil 30-dekabrdagi O'RQ-812-sonli Qonuni. T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2022 yil 31- dekabr.

3. Article: "Vague-added tax." // www.en.wikipedia.org - Wikipedia, the free encyclopedia
4. Article: "Lore Moris" // www.en.wikipedia.org - Wikipedia, the free encyclopedia
5. Vahobov A., Sanaqulova B. "Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish". Darslik. T.: "Iqtisod-Moliya". 2014. 106-bet.
6. *2021 yil uchun Davlat byudjeti: fuqarolarning daromadlari oshdi.* (n.d.). Norma.uz Informatsionno-pravovoy Portal. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlari/2021_yil_uchun_davlat_byudjeti_fuqarolarning_daromadlari_oshdi
7. Carl S.Warren, James M.Reeve, Jonathan E.Ducae. Accounting. South-Western College Pub, USA,2014.
8. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2018 y.
9. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2018 y.
10. KuljanovO., Xusinov I. JumanazarovS.;Buxgalteriya hisobi nazariyasi: O'quv qo'llanma.– T.: "Iqtisod-Moliya", 2018.